

HUVAYDONING BADIY MAHORATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15666337>

Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna

Ichki ishlar vazirligi

Buxoro akademik litseyi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya

Xojamnazar Huvaydo o'z davrining an'anaviy she'riy shakllarida – g'azal, ruboiy, muxammas kabi janrlarda ijod qilgan. U aruz vaznini yaxshi bilgan va qofiya va radifni mahorat bilan ishlatgan. G'azallarida ko'pincha ishqiy, axloqiy, falsafiy mavzularni yoritgan. Ushbu maqolada badiiy san'atlarning qo'llanilishi va uning Huvaydo ijodidagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar

didaktika, g'azal, qofiya, muxammas, radif, badiiy san'at, tashbeh, mubolag'a.

Abstract

Xojamnazar Huvaído created in the traditional poetic forms of his time - in such genres as ghazal, rubai, muhammas. He was well versed in the aruz meter and skillfully used rhyme and radif. In his ghazals, he often covered romantic, moral, and philosophical themes. This article discusses the use of artistic arts and their importance in Huvaído's work.

Keywords

didactics, ghazal, rhyme, muhammas, radif, artistic art, allegory, exaggeration.

Аннотация

Ходжамназар Хувайдо писал в традиционных поэтических формах своего времени - газели, рубайи, мухаммасы. Он хорошо владел арузским размером и умело использовал рифму и радиф. Его газели часто охватывали романтические, моральные и философские темы. В этой статье обсуждается использование художественных искусств и их значение в творчестве Хувайдо.

Ключевые слова

дидактика, газель, рифма, мухаммас, радиф, художественное искусство, сравнение, гипербола.

KIRISH. Huvaydo ijodida Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab kabi buyuk shoirlarning ta'siri seziladi. Ularning g'azal janridagi an'alarini davom ettirgan

holda o'zining shaxsiy uslubini yaratgan. Huvaydo o'z asarlarida nozik ruhiy holatlarni, muhabbat kechinmalarini, hayotiy lavhalarni poetik shaklda mahorat bilan tasvirlaydi. Uning obrazlari jonli. Ko'plab she'rlarida insoniy qadriyatlar, o'lim va abadiylik kabi falsafiy mavzular ham chuqur yoritilgan. Lirik qahramon ko'pincha shoirning o'zi bo'lib, ichki kechinmalari orqali umumiy insoniy holatlarni ifodalaydi. Adib o'ziga xos ijodiy uslubga ega bo'lgan iste'dodli shoirdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Akademik V.Zohidov, adabiyotshunos T.Jalolovning Huvaydo ijodiga bag'ishlangan maqolalari paydo bo'ldi. Shundan so'ng shoir ijodi haqida S.G'aniyeva, R.Nosirov, S.Hasan, A.Qayumov, Sh.Turdiyev, Q.Ro'zmatzoda, A.Xudoyberdiyev, N.Jumaxo'ja, I. Suvonqulov o'z maqola va tadqiqotlarida ma'lumotlar berishgan. Huvaydo ijodini o'rganish adabiyotshunoslar tomonidan 1959-yildan boshlandi. Xususan, M.Afzalov "Huvaydo va Mashrab ijodini atroflicha o'rganaylik" sarlavhali maqolasida Huvaydo ijodi chuqur o'rganilmaganligini ma'lum qildi". [7. №49.]

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Biz ushbu maqolada Huvaydo lirikasida badiiy san'atlarning qanday qo'llanganligi, uning g'azallari tahlili orqali adibning badiiy mahoratini ochib berishni maqsad qildik. Tahlil jarayonida tashbeh, mubolag'a, tashxis, tajnis badiiy san'atlari Huvaydo ijodida qanday ifodalanganligianiqlandi. Adibning o'ziga xos badiiy mahorati yetarlicha asoslandi.

Huvaydo o'z ijodida lirik qahramon obrazi, uning kechinmalari, ichki his-tuyg'ularini ifodalashda g'azalning kompozitsion yaxlitligini, baytlar misralarining mantiqiy va uzviy bog'lanishi uchun tasvirlanayotgan mazmunni chuqurlashtirishda ko'plab badiiy san'atlardan foydalangan.

TAHLIL VA NATIJALAR. G'azalning ta'sirchan kuchi va badiiy mukammalligini ta'minlash uchun u turli xil badiiy vositalardan foydalanadi:

"Sahar bodi nasimidek guzar qilsa gulistondin,
Ko'rib gullar bo'yab qonga yuz-u bag'rini qildi chok".

[1.-B. 123]

(Agar tong shabadasi gul bog'idan o'tsa, atirgullar buni ko'rib, yuzlarini qon va ko'z yoshlariga bo'yashadi)

Baytda saharlik mayin shamol va gullar o'rtasidagi tasavvufiy va tabiat manzarasi berilgan.

- Sahar nasimi- hayot, uyg'onish, ruhoniyluk ramzi sifatida ko'riladi.

- Gullar - go'zallik, muhabbat va nozik tabiat timsolidir.

Shamol gulzor ichidan o'tib ketganda, gullar shunchalik hayajonga tushadiki, ular o'z yuzlarini qon (qizil) rangga bo'yab yuboradi (ya'ni yuzlari qizaradi),

bag'irlari yoriladi (shamoldan silkinadi, gullarning barglari ochiladi yoki to'kila boshlaydi).

Tasavvufiy ma'noda:

- Shamol – haqiqat ruhi, ilohiy ishora
- Gullar – so'fiy ruhlar, ya'ni haqiqatdan hayajonlanib o'zini yo'qotganlar ramzi

“Oh ursam, saqfi gardunga tegor ohim o'ti,
Shiddatidin o't chiqib aylar sado, yig'lar sahob”.

[1.-B. 123]

(Men oh ursam, ohim o'ti osmon gumbaziga tegadi, ularning kuchidan olov paydo bo'ladi, momaqaldiroq bo'lib, bulutlar yig'laydi).

Yuqoridagi misralarda shoir tashxis badiiy san'atidan mohirona foydalanadi. Bu misralarda insonga xos bo'lgan harakatlarning tabiat hodisalariga o'tishini ko'rish mumki: “shamolning yurishi”, “gullarning yuzini qonga bo'yashi”, “bulut yig'lashi” –tashxis san'atini yuzaga keltirgan. Oshiqning ohi osmon gumbaziga tegishi esa mubolag'aning g'uluv turini hosil qilgan.

Adabiyotda ko'p qo'llaniladigan badiiy san'atlardan biri–tashbeh san'atidir.

“Borib kimlarga aytay “dod” deb yig'lab mani xasta,
Yurak tog'ida dardingni tuganmas, misli kon qilding”.

[1.-B. 134]

(Kingadir o'zimning baxtsizligimni, ishq dardidan xasta ekanligimni aytay, yuragimda cheksiz iztiroblar konini paydo bo'ldi).

Ushbu baytda juda kuchli iztirob va yalinish ohangi bor.

“Yurak tog'i” va “kon” – juda kuchli tasviriy metafora. “Dod” so'zi – bu yerda adolat istovchi nola, yod etuvchi “ichki qichqiriq”.

“Tanim suvdek sizib oqdi, ragimda qolmadi qonim,
Biyobonlar aro qolg'on oqorg'on ustuxon bo'ldum”

[1.-B. 168]

(Mening tanam suvdek oqdi, tomirimda qon qolmadi. Cho'lda qolgan oqargan suyaklarga aylandim).

Bu misralardagi misli kon (kon kabi), tanim suvdek (tanim suvdek) iboralari o'xshatishdir, ya'ni tashbeh san'ati yuzaga kelgan. Bu o'xshatishlar shoir lirikasida so'z va qo'shimchalar orqali shakllangan: go'yo, xuddi, yanglig', kabi, -simon, -day, -dek. Taqqoslash yozuvchiga obyektini kam so'z bilan aniqroq ifodalash imkoniyatini beradi. Ba'zan bunday tafsilot yordamida muhim hayotiy hodisaning

umumiy tushunchasi yetkazilmaydi, unga ijobiy yoki salbiy munosabat aniq ifodalanadi:

“Boyo’g’li kabi kulbayi vayrona qilibman,
Xurshidi jafo issig’idin tashna lab o’ttum”

[1.-B. 157]

(Men boyo’g’li kabi vayrona kulbada yashayman, quyoshning alamli azobidan azob chekaman).

Bu misralarda boyo’g’li kabi birikmasi–ochiq tashbeh san’atini yuzaga keltirgan. Kabi– o’xshatish vositasi hisoblanadi.

Mubolag’a badiiy san’ati quyidagi misralarda lirik qahramon ruhiy holatini aniqlashga yordam bergan:

“Otdek tutashib shu’la husni bu jahonga,
Taftiga oni balki samandar chidayolmas”.

[1.-B. 94]

(Mahbubaning husni shu’la kabi har tarafga porlab turadi. Uning go’zalligidan kelayotgan taft (harorat) shunchalik kuchliki, olovda yashaydigan samandar ham bunga dosh bera olmaydi)

Samandar – Sharq adabiyotida olovda yashaydigan afsonaviy mavjudot bo’lib, u hech qachon yongan emas, olov unga zarar qilmaydi. U ko’pincha sabr, chidam, va sehrli kuch timsoli sifatida ishlatiladi.

Shoir aytmoqchiki, mahbubaning husni (go’zalligi) shu’la singari har tarafga taraladi, yondirib yuboradi. Uning harorati (ya’ni go’zalligidan kelayotgan ruhiy olov) shu darajada kuchliki, hattoki hech qanday olovdan qo’rqmaydigan samandar ham bunga chiday olmaydi.

Shu’la, taft, samandar – uchta olovga aloqador obraz yordamida go’zallikning kuchi tasvirlanadi. Bu yerda mubolag’a vositasida mahbubaning jozibasi osmoniy, yondiruvchi, chidab bo’lmas darajada kuchli deb tasvirlanadi. Tasavvufiy yo’sinda, bu husn – ilohiy go’zallik, unga qarshi tura olmaslik esa oddiy insonning ojizligi tarzida ham talqin qilinishi mumkin.

“Ichibman zahri g’amni, shiddatidin ko’z yoshim oqdi,
Tomuzsam qatrasin yerga hama obi ravon kuygay”.

[1.-B. 229]

(Men g’am zaharini ichdim, ko’z yoshlarim shiddatdan oqmoqda. Agar bir tomchi ko’z yoshim yerga tushsa, barcha oqayotgan suvlar ham yonib ketar edi”.

Shoir o'z dardini nihoyatda kuchli va mubolag'ali ifoda qilmoqda:

- U shunchalik g'amli va alamli holatdagi, go'yo g'amning o'z zaharini ichib yuborgan.

- Bu g'am shiddati ko'z yoshlarini to'xtovsiz oqizmoqda.

- Hatto ko'zidan tushgan bir tomchi yosh yerga tushsa, nafaqat yer, balki oqib yotgan barcha suvlar (obi ravon) ham yonib ketadi.

Ya'ni bu yerda ko'z yoshlari oddiy suv emas, balki shunchalik azobli va zaharliki, har qanday toza suvni ham yoqib yuboradigan darajada tasvirlangan.

- Mubolag'a (hyperbole): Ko'z yoshning bir tomchisi butun suvlarni kuydiradi – bu g'am shiddatini haddan ortiq kuchli qilib ko'rsatish.

- Tasviriylilik: "Zahar ichish", "suvni kuydiruvchi yosh" kabi obrazlar bilan ichki holatni tashqi tabiat manzarasi orqali ifodalash.

- Simvolika: "Obi ravon" – tabiiy hayot va poklik ramzi, uni ham kuydiruvchi dard – nihoyatda azobli ruhiy holat ramzi.

Shoir lirikasida mubolag'aning g'uluv turidan foydalanib, oshiqning ichki holatini tasvirlaydi:

"Agar kirsam yig'iga ko'z yoshimdin, ey jafopesha,

Ki, mashriq to mag'ribqa jahon obi azob o'lg'ay".

[1.–B. 238]

(Alamdand yig'layman, ko'z yoshlarimdan, ey zolim, sharqdan g'arbgacha dunyoda sel ofati bo'lar).

Bu yerda shoir o'zining ko'rgan sitamidan va qalb iztirobidan shunchalik ko'p yig'lashini tasvirlayaptiki, hatto uning ko'z yoshlari sharqdan g'arbgacha butun dunyoni to'ldirib yuboradi. "Obi azob" – azob suvi, ya'ni ko'z yoshi orqali ifodalangan iztirob, alam va qayg'u. "Jafopesha" esa – "jafoni hunar qilgan", ya'ni zulm va ozorni kasb qilgan sevgilidir.

"Ko'zim yoshin sochib anga berurman dam-badam taskin,

Yo'q ersa, kuygusi dunyo yuzi ham qolmag'oy odam"

[1.–B. 166]

(Olovni ko'z yoshlarimni sepib, asta-sekin o'chiraman, aks holda butun dunyo yonib, bir kishi ham qolmaydi).

Shoir bu yerda ko'z yoshlari – qalbdagi dard va iztirobni yengillashtiruvchi yagona vosita ekanini ta'kidlamoqda. Yig'i – bir necha bor takrorlanadigan ("dam-badam") taskin vositasi. Agar bu yig'i bo'lmasa edi, yurakdagi iztirob odamni yo'q qilib yuborar, butun dunyo yuzida kuygan odam qolmas edi, degan fikr ilgari

surilmoqda. Shoir uchun yig'i – faqat alam belgisi emas, balki jon saqlovchi, ruhiy og'riqni yengillashtiruvchi amaldir.

Bunday mubolag'ali tasvirlar yordamida lirik qahramonning munosabati, uning tashqi va ichki hayotidagi voqealar oydinlashadi.

Huvaydo o'z lirikasida ko'p qo'llagan yana bir she'riy vosita "tafrit", ya'ni litota san'atidir. Oshiqning holati haqidagi taassurotni kuchaytirish uchun shoir yana bir muhim hodisani kamaytiradi. Huvaylo oshiqning ma'naviy olamini qayta tiklab, ishq olovi bilan solishtirganda Namrud qabilasi (Bobil hukmdorlaridan biri) Ibrohim payg'ambarni o'ldirish uchun olov yoqadi. Bu olov jahannam alangasi ekanligini aytadi. Ishq olovi bilan solishtirganda, jahannam olovi yoki shudringga o'xshatadi:

"Bu ishqning oldida Namrud o'ti kul bo'lg'oni yo'qmi?

Tamug' o'ti erur ishq o'tini oldida chun shabnam".

[1.-B. 166]

Shoir quyidagi misralarda ishq o'tining 1 zarrasini 2 olamga sig'maydi, inson ko'ngli kengdir, men ishq zarrasini uning ichiga yashirdim", -deydi.

"Agar bir zarrasin aytsam, du olam mulkig'a sig'mas,

Ko'ngil mulkin azim derlar, aning ichra nihon qildim".

[1.-B. 153]

Shoir bu yerda sevgining nihoyatda ulug'ligini ifodalaydi. Yorning shunchaki "bir zarra" sifatini bayon qilsa, u "du (ikki) olam" – bu dunyo va u dunyo mulkiga sig'masdi. Shunday cheksiz, buyuk bir sevgini esa ko'ngil deb ataladigan ichki, ruhiy makonga joylashtirish – ko'ngil saltanati naqadar keng va ilohiy ekani fikrini beradi. Ko'ngil –Ollohning tajallisi tushadigan muqaddas makon sifatida talqin qilinadi.

Ishq o'tining bir zarrasini ko'ngilga yashirish mubolag'a san'ati hisoblanadi. Bunday chiroyli o'xshatishlar Huvaydoning o'ziga xos badiiy mahoratidir.

Shoir tajnis kabi badiiy vositadan ham unumli foydalanadi:

"Saqlagil bir yaxshi ot, o'zingga hargiz o'lmasun,

Ey Huvaydo, saqlag'uncha yilqida ming yaxshi ot".

[1.-B. 46]

(Ey Huvaydo, sendan yaxshi nom qolsin, buning uchun ming yilqi-yu otdan voz kech, ya'ni boylik nazarda tutilgan).

Birinchi misrada "ot"-nom, ikkinchi misrda esa "ot"-hayvon ma'nosida ifodalangan.

“Nigohing misli ohuyi pamida*
Yonib bir boqishingdin bo’ldi dil ob”.
Yuzung gul, lablaring la’li Badaxshon,

So’zing shirinligi nedin olur ob?
Dahoning g’uncha-yu, gul-u tishlaring dur,
Qaddingdur sarv, raftoring erur ob”.
Ajabki, ikki g’azal oldida ikki kamon ko’rdim,
O’q otishsa, ko’ksim nishon bo’lar.

[1.-B. 38]

(Ikki kechadan oldin, ikki tongda ikki tong paydo bo’ldi, ular qorda qon quyqalari kabi).

Pamida* – qo’rqqa

(Ko’zlaring hurkak ohuga o’xshaydi, bir boqishingdan yuragim eridi. Yuzung gul, lablaring Badaxshon yoquti, so’zing shirinligi nimadan? Og’zing g’uncha, tishingdur, qomating sarv, yurishing kishini mahliyo qiladi. Ikki g’azal go’zalning ko’zi, ikki kamon uning qoshi. Ikki kecha – ikki ko’z, ikki tong ko’z ochilgan damlar. Ikki shafaq – ochilganda ko’zdan chiqadigan nurlar).

Bu tasvirlarning barchasi– metafora.

Ikkinchi misradagi “ob” so’zi– “erimoq”, to’rtinchi misrada “suv”, oltinchi misrada “mahliyo qilmoq” ma’nosida kelgan. Albatta, bir xil shakldagi so’zlarning turli ma’nolari bilan so’z o’yini hosil qilish Huvaydoning iste’dodli shoir ekanligidan dalolat beradi.

Ikki g’azal go’zalning ko’zi, ikki kamon uning qoshi. Ikki kecha – ikki ko’z, ikki tong ko’z ochilgan damlar. Ikki shafaq – ochilganda ko’zdan chiqadigan nurlar. Bularning barchasi– metafora.

XULOSA. Adib tajnis (ya’ni shaklan bir xil, lekin ma’nosi turlicha bo’lgan so’zlar) san’atidan juda mohirona foydalangan. Bu uslub bilan u she’rga musiqiylik, ohangdorlik beradi va mazmunga chuqurlik qo’shadi. U o’z she’rlarida tashbeh, istiora, kinoya, mubolag’a kabi badiiy san’at vositalarini juda puxta va o’rinli ishlatgan. U nafaqat so’z bilan o’y o’ylar, balki o’quvchini his-tuyg’ular orqali ruhiy olamga yetaklaydi.

Huvaydo ayrim asarlarida axloqiy-pedagogik g’oyalarni ilgari surgan. O’quvchini yaxshilikka, poklikka, sabr-toqatga undagan. Bunday didaktik ruh, ayniqsa, xalq orasida mashhur bo’lishiga sabab bo’lgan. Huvaydo mubolag’a va tashbeh vositalaridan foydalanganda ularni murakkab yoki balandparvoz shaklda emas, oddiy, lekin nihoyatda ta’sirchan uslubda ishlatadi. Bu uning o’ziga xos badiiy yo’nalishini belgilaydi. Xojamnazar Huvaydoning badiiy san’at vositalarini

qo'llashdagi o'ziga xosligi- xalqona soddalik, chuqur mazmun, ohangdorlik, va ramziy ifodaning muvaffaqiyatli uyg'unligida namoyon bo'ladi. U she'rga nafasat, tuyg'u va hayotiy haqiqatni olib kirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xojamnazar Huvaydo. Devon. –T.:Yangi asr avlodi. 2017. –B. 202.
2. Boborahim Mashrab. “Mehribonim qaydasan”. –T.:G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1990. –B.112.
3. Ro'zmatzoda Q. Huvaydo va tasavvuf. //Sino. – T.: 2011. №43-44. – B.153.
4. Atoullo Husayniy. Badoye' us-sanoye – T.: 1990.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari – T.: O'zbekiston. 2002.
6. Zohidov V. Hayotbaxsh badiiyat taronalari. –T.:1975.
7. Afzalov M. Huvaydo va Mashrab jodini atroflicha o'rganaylik//“O'zbekiston madaniyati” gazetasi. 20-iyun, 1959-yil. №49 (354).
8. Zohidov V. Xalq dilida Huvaydo Chimyoni. “Toshkent oqshomi” gazetasi, 1968, 4-mart.
9. Hojiahmedov A. She'r san'atlari va mumtoz qofiya. – T.: O'qituvchi, 1999.
10. Zaripova, D. (2023). THE IMAGE OF ISKANDAR IN HUVAIDO'S WORK. Science and innovation, 2(C11), 50-53.
11. Zaripova, D. (2022). I PUT FIRE INTO THE CHEST OF MY BELOVED... Science and Innovation, 1(8), 428-431.